XALQ DEPUTATLARI KONIMEX TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 9-yanvar VII-16-1-5-70-K/26 Konimex tumani

Konimex tuman boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qoʻllaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 16^2, 24-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 383, 412, 422, 429 va 437-moddalariga asosan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soligʻini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” PF-6121-sonli Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq qoʻmitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xati, 2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, xalq deputatlari viloyat Kengasining 2026-yil 9-yanvardagi VII-23-1-5-0-K/26-sonli Qarori, Konimex tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 9-dekabrdagi 20/26-59187-sonli xati Konimex tuman boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qoʻllaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash hamda bildirilgan fikr va mulohazalarini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2026-yilda Konimex tuman boʻyicha yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligida moʻljallanmagan yerlarini bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 1 gektar uchun 46,6 mln.soʻm, jismoniy shaxslar yerlarining 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 377,0 soʻm belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

-shaharlar va tumanlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha 2026-yilda Konimex tuman uchun mutlaq miqdorda belgilangan yer soligʻining bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

- shaharlar va tumanlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab jismoniy shaxslar boʻyicha *(dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallagan yerlardan tashqari)* 2026-yilda tuman uchun mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

- 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksining 445-moddasi bilan oʻrnatilgan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq;

- 2026-yil uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksining 452-moddasi bilan oʻrnatilgan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari mahalliy byudjet prognozlariniinobatga olib, 1 va 2-ilovaga asosan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, koʻcha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

4. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tegishli hududda joylashgan daha,mavze, mahalla, koʻcha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2026-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini taqdim etilishini taʼminlasin.

5. Konimex tuman boʻyicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qoʻllaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni “Kenimex tangi” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb saytida eʼlon qilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tumanning hokimining birinchi oʻrinbosari (E.Hazratqulov) va xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi **RO‘ZIYEV RUSLAN NASIROVICH**

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-16-1-5-70-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(so‘m hisobida)

T/R	**MFY lar nomi**	**Tumanda 1 ga. yer uchun bazaviy soliq stavkasi**	**Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsent** ***(0,7-3,0)***	**Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun**
A	***1***	***2***	***3***	***4***
1	Yuksalish MFY	46 640 000	1,25	58 300 000,0
2	Karakata OFY	46 640 000	1,15	53 636 000,0
3	Shurtepa MFY	46 640 000	1,25	58 300 000,0
4	Uchtepa OFY	46 640 000	1,15	53 636 000,0
5	Tukkiztepa MFY	46 640 000	1,25	58 300 000,0
6	Sarjal OFY	46 640 000	1,15	53 636 000,0
7	Navruz MFY	46 640 000	1,60	74 624 000,0
8	Kukcha MFY	46 640 000	1,25	58 300 000,0
9	Zafarobod MFY	46 640 000	1,60	74 624 000,0
10	Guliston MFY	46 640 000	1,60	74 624 000,0
11	Baymurat OFY	46 640 000	1,15	53 636 000,0
12	Birlik MFY	46 640 000	1,60	74 624 000,0
13	Yangigazgan OFY	46 640 000	1,15	53 636 000,0

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-16-1-5-70-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(so‘m hisobida)

	MFY lar nomi	**Tumanda 1 kv.metr yer uchun bazaviy soliq stavkasi**	**Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsent *(0,7-3,0)***	**Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun**
A	***1***	***2***	***3***	***4***
1.	Yuksalish MFY	377,0	1,30	490,10
2.	Karakata OFY	377,0	1,05	395,85
3.	Shurtepa MFY	377,0	1,25	471,25
4.	Uchtepa OFY	377,0	1,05	395,85
5.	Tukkiztepa MFY	377,0	1,25	471,25
6.	Sarjal OFY	377,0	1,05	395,85
7.	Navruz MFY	377,0	1,25	471,25
8.	Kukcha MFY	377,0	1,05	395,85
9.	Zafarobod MFY	377,0	1,45	546,65
10.	Guliston MFY	377,0	1,30	490,10
11.	Baymurat OFY	377,0	1,05	395,85
12.	Birlik MFY	377,0	1,45	546,65
13.	Yangigazgan OFY	377,0	1,05	395,85

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-16-1-5-70-K/26 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T/R	**Hudud nomi**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar**	**Sanoat korxonalari**	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)**
1	Konimex t.	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Konimex tumani
Kengashining
2026-yil 9-yanvardagi
VII-16-1-5-70-K/26 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

№	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanesjinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub		**Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub**		**Marmar soʻm/m.kub**		**Granitlar soʻm/m.kub**		**Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna**		**Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub**		**Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub**	
		Koeffitsiyent	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***	***Koef-fitsiyent***	***Soliq stavkasi***
1	**Konimex t.**	1,10	7 250,1	1,12	11 984,0	1,10	23 540,0	1,12	35 952,0	1,1	18 772,6	1,15	5 684,5	1,20	6 420,0